YURIDIK SHAXSLARNING SOLIQ QARZDORLIGINING TASNIFLANISHI

Rizaeva Laylo Patxulla qizi
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 16.08.2025
Revised: 18.08.2025
Accepted: 19.08.2025
Key words:
yuridik shaxslar, soliq qarzdorligi, soliq majburiyatlari, soliq nazorati, soliq qonunchiligi, moliyaviy tartibga solish, soliq qonunbuzarliklari, soliq to‘lovchilari.

Abstract
Ushbu maqolada yuridik shaxslarning soliq qarzdorligining tasnifi va uning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Soliq qarzdorligi tushunchasi, uning shakllari va yuridik shaxslar oldidagi majburiyatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada soliq qarzdorligining to‘g‘ri tasniflanishi soliq nazorati va moliyaviy tartibga solishda muhim ahamiyatga ega ekani ta’kidlanadi. Shuningdek, soliq qarzdorligi turlari, ularning soliq qonunchiligidagi joyi va soliq qonunbuzarliklariga qarshi kurashish mexanizmlari haqida fikr yuritiladi.

Soliq to‘lovchi qonunchilikda belgilangan o‘z majburiyatlarini bajarmas ekan, ya’ni o‘z vaqtida davlat ro‘yxatidan o‘tgan holda faoliyatiga oid soliq va majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi va hisoblangan soliqlarni o‘z vaqtida to‘lanmasligi soliq qarzini keltirib chiqaradi.

Soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash orqali majburiyatning bajarilishi jarayonida davlatga biror naf keltirish sifatida baholanadi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida “Soliq to‘lovchining soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati” - deb e’tirof etilgan.

Shuningdek, Soliq kodeksida keltirilgan soliq qarzi tushunchasi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarz summasi, shu jumladan Soliq kodeksida belgilangan muddatida to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalardan iboratligi belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 22-moddasi 2018. www. Lex.uz. internet manbasidan olingan).

Zamon talablaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, soliq qarzlarini

qisqartirishning eng zamonaviy usuli - soliqlarning yig‘iluvchanlik darajasini oshirishga borib taqaladi. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda hisoblangan soliqlarning o‘z vaqtida va to‘liq undirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli tuzilmalar va ijro hokimiyati organlari tomonidan “soliq bo‘yicha qarzdorlik” va “soliq qarzi” tushunchalarining turlicha talqin qilinishini ta’kidlash muhimdir. Davlat soliq xizmati organlari mutaxassislari “qarzdorlik” tushunchasini qarzdorlarning budjet oldidagi bajarilmagan majburiyatlari, shu jumladan, hisob-kitob choralari ko‘rilmagan soliq va unga nisbatan hisoblangan jarimalar, shuningdek “qarzlar” tushunchasi - qarzdorlik bo‘yicha hisob-kitob choralari ko‘rilgan qarzlar, shuningdek soliq va yig‘imlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jarimalar - deya ta’riflashgan.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliq tizimi va soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlar va yangiliklarni to‘laroq etkazib berish talablaridan kelib chiqqan holda amaldagi soliq tizimini tahlil qilib, uni yanada soddalashtirish, soliqqa tortishning samarali tartiblarini amaliyotga tatbiq etish davlat soliq xizmati organlarining soliq to‘lovchi yuridik shaxslar oldidagi muhim vazifalari jumlasiga kiradi. Soliq qarzdorligini xususiyati jihatidan quyidagicha tasniflash mumkin (1-rasm).

Odatiy (tabiiy) soliq qarzdorligi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘rtasida tovar va xizmatlar oldi-sotdi tizimining kamchiliklari natijasida yuzaga kelib, bunda o‘zaro hisob-kitoblarda mablag‘lar uzluksiz emas, balki ma’lum bir interval davomida aylanadi. Buning natijasida soliq qarzini qoplashda qisqa davrli moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday turdagi soliq qarzdorligi qisqa muddat ichida soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lab beriladi yoki soliq organi tomonidan oson undirib olinadi.



1-rasm. Soliq qarzdorligining tasniflanishi

Asossiz (sababsiz) soliq qarzdorligi bu soliq to‘lovchilar tomonidan qasddan, bila turib to‘lov intizomini buzishi natijasida yuzaga kelgan qarzdorlik hisoblanadi.

To‘lov muddati uzaytirilgan soliq qarzdorligi bu xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning soliq va to‘lovlardan hamda hisoblangan penya va jarimalardan qarzdorliklarini (qonun va qonun osti meyoriy hujjatlar asosida maxsus vakolatli organlar tomonidan) to‘lov muddati uzaytirilgan qismidir.

Undiruv uchun to‘xtatilgan (band solingan) soliq qarzdorligi bu soliq qarzini undirish bo‘yisha tashqi boshqaruvning ta’minlanishi yoki undiruv organlari (soliq va sud ijro) orqali va boshqa qarorlar bilan ta’qiq orqali band solingan soliq qarzdorligidir.

To‘lov muddati o‘tgan soliq qarzdorligi bu soliq to‘lovchilar tomonidan qasddan soliq majburiyatlarini bajarmasligi va soliq qarzdorligini uzoq muddat

davomida to‘lamasligi, kredit tashkilotlarining kassa qoidalariga rioya qilmay to‘lov hujjatlarini muddatida ijro etmasligi, soliq organlarining soliq qarzini undirish bo‘yicha ma’lum darajadagi harakat yoki harakatsizligi oqibatida yuzaga keladigan qarzdorlikdir.

Umidsiz soliq qarzdorligiga ma’lum holatlar, shart-sharoitlar tufayli (soliq to‘lovchining o‘limi, belgilangan manzilda yo‘qligi, bedarak yo‘qolganligi, to‘lov qobiliyati yo‘qligi uchun tugatilgan) umuman undirish imkoni yo‘q qarzdorliklar kiradi.

Soliq qarzdorligining turi bo‘yicha quyidagicha tasniflash mumkin:

Aniqlangan (tasdiqlangan) soliq qarzdorligi – soliq to‘lovchi tomonidan tasdiqlangan va soliq organi tomonidan asoslangan hamda hujjatlarda qayd etilgan soliq qarzdorligidir.

Yashirin (tasdiqlanmagan) soliq qarzdorligi soliq va to‘lovlarni to‘liq hisoblanmasligi yoki to‘lanmasligi hamda soliq hisobotlarida aks ettirilmasligi oqibatida kelib chiqadi. Bu qarzdorlikning kelib chiqishiga yana bir sabab qilib, aksariyat soliq to‘lovchilar tomonidan budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan mablag‘larni vaqtinchalik aylanma mablag‘larni to‘ldirish (kreditlash) orqali boshqa yo‘nalishlarga sarflanishini keltirish mumkin. Ushbu qarzdorlik ma’lum vaqt o‘tishi bilan qoplanishi ham mumkin.

Soliqlar va majburiy to‘lovlarning o‘z muddatida va to‘liq hajmda tushishi davlat miqyosida amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlarning, ya’ni budjet va maqsadli jamg‘armalarning xarajat qismini o‘z vaqtida moliyalashtirishga xizmat qiladi.

Soliqlar bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning o‘z funksiyalarini amalga oshirishda asosiy vosita bo‘lib hisoblanadi. Soliqlarning o‘z vaqtida va to‘la hajmda undirilishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini hamda ijtimoiy-iqtisodiy va mudofaa qudratining oshishini ta’minlaydi.

O‘z navbatida, ushbu mablag‘larning muddatida va to‘liq hajmda tegishli

budjet va maqsadli jamg‘armalarga kelib tushmasligi, davlatning ma’lum davr uchun belgilangan xarajatlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Korxonalarning iqtisodiy salohiyatini yanada takomillashtirish, ularga kelajakda ma’qul keladigan hamda budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlarni ko‘paytirish imkonini beradigan mexanizmni yaratish, korxonalarning investitsion jozibadorligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha tushumlarni oshirishda unga bevosita ta’sir etuvchi debitor va kreditor qarzlari hisobiga hosil bo‘lgan soliq qarzini qisqartirish yo‘llarini asoslantirilgan takliflarni topish va ular faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha amaliy maslahatlar va aniq echimlar ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliq tizimi va soliq qonunchiligidagi o‘zgarishlar va yangiliklarni to‘laroq etkazib berish talablaridan kelib chiqqan holda amaldagi soliq tizimini tahlil qilib, uni yanada soddalashtirish, soliqqa tortishning samarali tartiblarini amaliyotga tatbiq etish, davlat soliq xizmati organlarining soliq to‘lovchi jismoniy va yuridik shaxslar oldidagi muhim vazifalari jumlasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev iqtisodiyot tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishning aniq hisobi hanuzgacha mavjud emasligi, davlat idoralari o‘rtasida elektron hamkorlik va ma’lumot almashuvi yo‘lga qo‘yilmagani, soliq, bojxona nazorati tizimi etarlicha tartibga solinmagani, qarzdorlikni undirish tizimi samarasizligi, mazkur sohada o‘rnatilgan javobgarlik choralari mansabdor shaxslar va fuqarolarning to‘lov intizomiga so‘zsiz rioya etish borasidagi mas’uliyatini oshirish uchun etarli emasligi ushbu qarzdorliklar kelib chiqishining asl sabablari hisoblanishini ta’kidlab o‘tganlar (Mirziyoyev SH.M. Iqtisodiyot tarmoqlarida hisob-kitob tizimini takomillashtirish, debitor, kreditor va budjet oldidagi qarzdorliklarni kamaytirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar tahliliga bag‘ishlangan

yig‘ilish. 2018 yil 17 aprel. uza.uz – O‘zbekiston Milliy axborot agentligining rasmiy sayti.).

Bu borada sohibqiron Amir Temur bobomiz “Temur tuzuklari” asarida “Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlansinlar. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag‘allashuviga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo‘ladi. Sipohning tarqoqligi, o‘z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi” – deya ta’kidlagan bo‘lib, soliqlarni undirishdagi tartib taomillarni amalga oshirishda ham ehtiyotkorona yondashilgan.

Xususan, “Amr qildimki, hosil pishib etilmasdan burun raiyatdan molu jihot olinmasin. Hosil etilishiga qarab, soliqni uchga bo‘lib olsinlar. Agar raiyat soliq to‘plovchi bormasdan, soliqni o‘zi keltirib bersa, u holda u erga soliq to‘plovchi yubormasinlar. Agarda soliqchini yuborishga majbur bo‘lsalar, soliqlarni buyruq berish va yaxshi so‘z bilan olsinlar; kaltak ishlatib, ishni urish-so‘kishgacha olib bormasinlar. Ularni bog‘lab, zanjir bilan kishanlamasinlar” kabi fikrlarini keltirish mumkin (Alixonto‘ra Sog‘uniy va Xabibulla Karomatov tarjimasi, Bo‘riboy Ahmedov va Ashraf Ahmedov tomonidan tayyorlangan “Temur tuzuklari”, 143 b.).

Bugungi kunda korxonalarning soliq qarzlarining surunkali ravishda undirilmasdan qolayotganligi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha budjet tushumlariga o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda. Zamon talablaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, soliq qarzlarini qisqartirishning eng zamonaviy usuli bu soliqlarning yig‘uvchanlik darajasini oshirishga borib taqaladi. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda hisoblangan soliqlarning o‘z vaqtida va to‘liq undirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq qarzlarini qisqartirish orqali soliq tushumlarining ortishi budjet daromadlarining sezilarli darajada o‘sishiga xizmat qiladi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan soliqlar va majburiy to‘lovlarni o‘z muddatida va to‘liq hajmda to‘lamasliklari natijasida qarzdorlik yuzaga keladi. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlikni kamaytirish va ushbu qarzdorliklar yuzaga kelishining oldini olish uchun davlat soliq xizmati idoralari hamda bank muassasasi xodimlaridan etarli darajada oqilona ish tashkil etilishi, bu boradagi mexanizmlarni ilg‘or xorij tajribasiga tayangan holda takomillashtirib borish zarurati talab etiladi.